



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / AVGUST/8-SON,
I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	
TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH	30
Umarov Ravshanjon Gafurovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	36
Mamurov Doniyor Eldorovich	
MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI VA USULLARI	43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li	
TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH	49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ	56
Мирвосикий Хилола Хабибулла кизи	
XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI	64
Z.Sh. Matniyozova	
DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING	69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi	
IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS	76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich	
TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLIVAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL	83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich	
GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS	90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI	96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
BARQAROR YASHIL INVESTITSİYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA	101
Zilola Kazakova	
HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURLARI SAMARADORLIGINI KOB-B-DUGLAS MODEL YORDAMIDA BAHOLASH	113
Turayev Baxrom Ergashevich	



“MAHALLA BANKIRI” INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO‘G‘INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI	120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o‘g‘li	
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO‘NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)	127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi	
O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINI RO‘YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI	132
Shohujayeva Zebo Safoyevna	
Xolov Javlonbek Davronovich	
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	138
Эргашева Шахло Тургуновна	
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ	146
Маннапова Раъно Аббасовна	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIVAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO‘LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: “3M-PLATFORMA” VA “SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM” KONSEPSIYALARI	154
Xojiyev Ma‘murjon Muxsinjon o‘g‘li	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI	163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna	
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	169
Yusupov Muxiddin Soatovich	
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o‘g‘li	
OLIY TA‘LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	177
Abdullayev Farhod Ozodovich	
“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-AMALIY NATIJALARI	180
Jamshidbek Bobojonov	
QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASSTERLARNING AHAMIYATI	184
Radjabova Mavluda Ergash qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI

Radjabova Mavluda Ergash qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0002-4160-7071

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti samaradorligini oshirishda klasterlarning ahamiyati yoritilgan. Ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, sertifikatlash va marketing jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish hamda eksport barqarorligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, eksport samaradorligi, klaster, kooperatsiya, qo'shilgan qiymat, logistika, sertifikatlash, bozor integratsiyasi.

Аннотация: В статье рассматривается значение кластеров в повышении эффективности экспорта сельскохозяйственной продукции. Разработаны предложения по снижению затрат, повышению качества продукции и обеспечению стабильности экспорта посредством координации процессов производства, переработки, логистики, сертификации и маркетинга.

Ключевые слова: сельское хозяйство, эффективность экспорта, кластер, кооперация, добавленная стоимость, логистика, сертификация, рыночная интеграция.

Abstract: This article examines the importance of clusters in improving the efficiency of agricultural product exports. Proposals are developed to reduce costs, improve product quality, and ensure export stability by coordinating production, processing, logistics, certification, and marketing processes.

Keywords: agriculture, export efficiency, cluster, cooperation, value added, logistics, certification, market integration.

KIRISH

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda samaradorlik faqat yetishtirilgan mahsulot hajmi bilan belgilanmaydi. Tashqi bozorda barqaror natijaga erishish mahsulotni talabga mos rejalashtirish, sifatini nazorat qilish, qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, sertifikatlash va xaridorga o'z vaqtida yetkazib berish kabi o'zaro bog'liq jarayonlarning muvofiqligiga bog'liq. Ushbu jarayonlardan biridagi uzilish butun eksport zanjirining xarajatlari, tezkorligi va ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mayda va tarqoq ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorga mustaqil chiqishi ko'pincha mahsulot partiyasini shakllantirish, yagona sifat talablariga rioya qilish, logistika xizmatlaridan foydalanish va savdo hamkorlari bilan muzokara olib borishda qiyinchilik tug'diradi. Klaster yondashuvi ana shu cheklovlarni ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi, logistika operatori, eksportyor va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni umumiy maqsad atrofida birlashtirish orqali yumshatadi.

Agroeksport klasteri qishloq xo'jaligi mahsulotining daladan tashqi bozordagi iste'molchigacha bo'lgan harakatini yagona boshqaruv tizimiga bog'lash imkonini beradi. Bunda ishlab chiqarish hajmi va assortimenti bozor talabi asosida muvofiqlashtiriladi, umumiy infratuzilmadan foydalanish kengayadi, mahsulot sifati bo'yicha yagona tartiblar joriy etiladi va ishtirokchilar o'rtasida mas'uliyat taqsimlanadi. Natijada alohida xo'jalikning imkoniyati klaster doirasidagi umumiy salohiyat bilan to'ldiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klasterlashuvning nazariy asoslari hududiy ixtisoslashuv, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va raqobat ustunliklarini shakllantirish g'oyalari bilan bog'liq. A. Marshall korxonalarning hududiy yaqinligi mehnat bozori, maxsus ta'minot va bilimlarning tarqalishi orqali iqtisodiy ustunlik yaratishini ta'kidlagan [1]. M. Porter klasteri o'zaro bog'langan korxonalar, yetkazib beruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar va institutlarning raqobat hamda hamkorlik uyg'unligiga asoslangan tizimi sifatida baholagan [2; 3].



P. Krugman ishlab chiqarishning hududiy jamlanishini miqyos samarasi, bozor sig'imi va transport xarajatlari bilan izohlaydi [4]. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tez buziluvchanligi va mavsumiyligi sababli hududiy yaqinlik, saqlash quvvatlari va logistika xizmatlarining muvofiqligi eksport zanjirida ayniqsa muhimdir. O. Sölvell hamda K. Ketels klasterlarning rivojlanishida biznes, davlat, ilm-fan va ta'lim o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi institutlarning rolini asoslagan [5; 6].

M. Delgado, M. Porter va S. Stern klaster muhitining tadbirkorlik faolligi, yangi korxonalar shakllanishi va iqtisodiy natijadorlikka ta'sirini empirik jihatdan o'rganganlar [7]. FAO qiymat zanjiri yondashuvida ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan bosqichlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, boshqaruv sifatini yaxshilash va ishtirokchilar uchun barqaror manfaat yaratish zarurligi qayd etiladi [8]. OECD tadqiqotlarida esa innovatsiya, maslahat xizmatlari, bilim almashinuvi va davlat siyosatining uyg'unligi agrar tarmoq raqobatbardoshligining muhim sharti sifatida ko'rsatilgan [9].

Mahalliy tadqiqotlarda klasterlashtirish hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan foydalanish, agrosanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarida o'rganilgan [11; 12]. Biroq qishloq xo'jaligi eksportida klasterlarning ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, sertifikatlash va bozor bilan ishlash jarayonlariga kompleks ta'sirini yagona tizim sifatida yoritish dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Klasterlarning eksport samaradorligiga ta'siri kooperatsiya, qo'shilgan qiymat, infratuzilma, sifat va muvofiqlashtirish yo'nalishlari bo'yicha baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi eksportida klasterlarning asosiy afzalligi tarqoq faoliyatlarni yagona qiymat zanjiriga birlashtirishidir. Fermer xo'jaligi eksport bozorining barcha talablarini mustaqil bajarishi shart bo'lmaydi; u ishlab chiqarishga ixtisoslashadi, boshqa ishtirokchilar esa qayta ishlash, saqlash, laboratoriya nazorati, logistika, marketing va savdo operatsiyalarini amalga oshiradi. Shu asosda vazifalar taqsimoti chuqurlashib, eksport jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi (1-jadval).

1-jadval

Agroeksport klasterlarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti samaradorligiga ta'sir yo'nalishlari

Ta'sir yo'nalishi	Klaster doirasidagi mexanizm	Eksport samaradorligiga ta'siri	Kutiladigan tashkiliy natija
Ishlab chiqarish kooperatsiyasi	Ekin turi, mahsulot hajmi, sifat talabi va yetkazib berish muddati bo'yicha ishlab chiqaruvchilar faoliyati muvofiqlashtiriladi	Barqaror eksport partiyalari shakllanadi, mahsulot assortimenti bozor talabiga moslashadi	Fermer va eksportyor o'rtasida rejalashtirilgan hamkorlik qaror topadi
Qayta ishlash va infratuzilma	Saralash, qadoqlash, sovitish, saqlash, qayta ishlash va transport xizmatlaridan birgalikda foydalaniladi	Yo'qotishlar va operatsion xarajatlar kamayadi, qo'shilgan qiymat oshadi	Umumiy agroservis va logistika tizimi shakllanadi
Sifat va sertifikatlash	Yagona ishlab chiqarish standartlari, laboratoriya nazorati, kuzatuvchanlik va hujjatlashtirish joriy etiladi	Mahsulot sifati barqarorlashadi, tashqi xaridor ishonchi va bozorga kirish imkoniyati kuchayadi	Klaster miqyosida sifatni boshqarish tizimi yaratiladi
Marketing, innovatsiya va moliya	Bozor axboroti, brendlash, savdo muzokaralari, ilmiy maslahat, kredit va sug'urta vositalari muvofiqlashtiriladi	Yangi bozorlar o'zlashtiriladi, risklar taqsimlanadi va eksport taklifi raqobatbardosh bo'ladi	Klaster ishtirokchilarining bozor va innovatsion faolligi oshadi

Jadval ma'lumotlari klasterlarning eksport samaradorligiga bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Ishlab chiqarish kooperatsiyasi mahsulot hajmi, assortimenti va yetkazib berish muddatini muvofiqlashtiradi. Qayta ishlash va umumiy infratuzilma mahsulotning saqlanishi hamda qo'shilgan qiymatini oshiradi. Sifat, sertifikatlash va kuzatuvchanlik tizimi tashqi xaridor ishonchini mustahkamlaydi, marketing va moliyaviy hamkorlik esa yangi bozorlarga kirish imkoniyatini kengaytiradi.

Klaster doirasida ishlab chiqarish rejasini eksport buyurtmalari va bozor talabi bilan bog'lash ortiqcha yoki talabga mos kelmaydigan mahsulot yetishtirish xavfini kamaytiradi. Urug', ko'chat, agroteknika xizmat va maslahatlarning umumiy standart asosida tashkil etilishi mahsulot sifatidagi tafovutlarni qisqartiradi. Shu bilan birga, bir nechta ishlab chiqaruvchining mahsulotini birlashtirish eksport uchun zarur bo'lgan barqaror partiyalarni shakllantirishga imkon beradi.


Qayta ishlash, sovitish, saralash va qadoqlash quvvatlaridan umumiy foydalanish klasterlarning muhim iqtisodiy ustunligidir. Alohida xo'jalik uchun qimmat bo'lgan infratuzilma kooperatsiya asosida ko'proq



ishtirokchiga xizmat qiladi. Natijada mahsulotning yo'qotilishi kamayadi, saqlash muddati uzayadi va xom mahsulot o'rniga qayta ishlangan yoki iste'molga tayyor mahsulotni eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Eksport bozorlarida mahsulot kelib chiqishi, xavfsizligi va ishlab chiqarish sharoitiga doir talablar kuchayib borayotgan sharoitda klaster yagona sifat boshqaruvi tizimini joriy etish uchun qulay muhit yaratadi. Laboratoriya tekshiruvi, sertifikatlash va mahsulot harakatini qayd etish jarayonlari markazlashganda nazoratning takrorlanishi kamayadi, hujjatlarni tayyorlash tezlashadi va xaridor bilan ishlashda ishonchlilik oshadi.

Klaster ishtirokchilarining umumiy marketing strategiyasi mahsulotni yagona hududiy yoki tarmoq brendi ostida ilgari surish, tashqi bozorlar to'g'risidagi axborotni almashish va savdo muzokaralarida kuchliroq pozitsiya egallash imkonini beradi. Bundan tashqari, uzoq muddatli shartnomalar, avans moliyalashtirish va sug'urta mexanizmlarining klaster doirasida qo'llanishi ishlab chiqaruvchi hamda eksportyor o'rtasidagi risklarni muvozanatlashtiradi (1-rasm).



1-rasm. Qishloq xo'jaligi agroeksport klasterining eksport samaradorligini oshirish mexanizmi

Taklif etilgan mexanizmga resurs va ishlab chiqarish salohiyati klaster kooperatsiyasi orqali qayta ishlash, logistika, sertifikatlash va marketing jarayonlari bilan bog'lanadi. Ilm-fan, moliya, servis va davlat boshqaruvi zanjirni qo'llab-quvvatlaydi, eksport samaradorligi esa sifat, qo'shilgan qiymat, xarajatlar va yetkazib berish barqarorligi orqali namoyon bo'ladi.

Natijalar monitoringi klaster strategiyasini bozor talabi, texnologik imkoniyat va ishtirokchilar ehtiyojiga mos ravishda muntazam yangilash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga yo'naltirilgan klasterlarni rivojlantirishning amaliy yo'nalishlari¹

Yo'nalish	Amalga oshirish mexanizmi	Kutiladigan natija
Klaster ixtisoslashuvini belgilash	Hududning mahsulot turi, resurs salohiyati, qayta ishlash imkoniyati va maqsadli bozor talablarini birgalikda baholash	Klaster faoliyati aniq eksport mahsuloti va bozor segmentiga yo'naltiriladi
Muvofiqlashtiruvchi markaz	Ishtirokchilar rejalari, shartnomalar, xizmatlar, buyurtmalar va muammolarni muvofiqlashtiruvchi professional boshqaruv tuzilmasini shakllantirish	Qarorlar tezlashadi va zanjir bo'g'inlari o'rtasidagi uzilishlar kamayadi
Umumiy eksport infratuzilmasi	Saralash, qadoqlash, sovuq ombor, laboratoriya, sertifikatlash va logistika xizmatlarini kooperatsiya asosida tashkil etish	Mayda ishlab chiqaruvchilarning eksport xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kengayadi
Shartnomaviy kooperatsiya	Mahsulot hajmi, sifat mezonlari, narx tamoyili, hisob-kitob, javobgarlik va risklarni taqsimlash shartlarini aniq belgilash	Ishtirokchilar manfaatdorligi va yetkazib berish intizomi mustahkamlanadi
Raqamli va ilmiy qo'llab-quvvatlash	Mahsulot kuzatuvchanligi, bozor axboroti, dala monitoringi, maslahat va kadrlar tayyorlash xizmatlarini yagona platformaga bog'lash	Sifat nazorati, innovatsiyalarni joriy etish va bozor talabiga moslashish tezlashadi

1 Manba: Muallif ishlanmasi.



Amaliy yo'nalishlarning izchil joriy etilishi klasterning faqat korxonalarni bir hududda jamlashdan iborat emasligini ta'minlaydi. Klaster koordinatori ishtirokchilar manfaatini muvofiqlashtirishi, umumiy infratuzilma esa real ehtiyoj asosida shakllantirilishi lozim. Shartnomaviy munosabatlar aniq majburiyatlar, sifat talablari, narxni shakllantirish tamoyillari va risklarni taqsimlash qoidalarini qamrab olishi zarur.

Hududlarda agroeksport klasterlarini shakllantirishda barcha mahsulotlar uchun bir xil tashkiliy modelni qo'llash maqsadga muvofiq emas. Meva-sabzavotchilikda sovuq zanjir va tezkor logistika, uzumchilikda qayta ishlash va brendlash, chorvachilik mahsulotlarida veterinariya nazorati va sertifikatlash, urug'chilikda esa ilmiy seleksiya hamda intellektual mulk masalalari ustuvor bo'lishi mumkin. Shu sababli klaster modeli hududning ixtisoslashuvi va eksport bozorining talablariga moslashtirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti samaradorligini oshirishda klasterlar muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ekanini ko'rsatdi. Klaster ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi, logistika operatori, eksportyor, ilmiy muassasa, moliya tashkiloti va davlat organlari faoliyatini umumiy qiymat zanjiri doirasida muvofiqlashtiradi. Bunday hamkorlik eksportga tayyor mahsulot hajmini shakllantirish, sifatni barqarorlashtirish, infratuzilmadan birgalikda foydalanish va bozor talablariga tez moslashish imkonini beradi.

Klaster samaradorligi uning nomi yoki tashkiliy-huquqiy shakli bilan emas, ishtirokchilar o'rtasidagi real kooperatsiya, shaffof shartnomalar, umumiy xizmatlar sifati va eksport natijalariga yo'naltirilgan boshqaruv bilan belgilanadi. Shu sababli agroeksport klasterlarini tashkil etishda majburiy birlashtirishdan ko'ra iqtisodiy manfaat, o'zaro ishonch va xizmatlardan foydalanish qulayligini shakllantirish ustuvor ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- hududlarning mahsulot ixtisoslashuvi, ishlab chiqarish salohiyati va tashqi bozor talablarini hisobga olgan holda agroeksport klasterlarining maqsadli yo'nalishlarini belgilash;
- fermer, qayta ishlovchi, logistika operatori va eksportyor o'rtasida mahsulot hajmi, sifati, yetkazib berish muddati hamda hisob-kitob tartibini aniq belgilovchi uzoq muddatli shartnomalarni rivojlantirish;
- klaster ishtirokchilari uchun umumiy saralash, qadoqlash, sovitish, saqlash, laboratoriya, sertifikatlash va eksport maslahat xizmatlarini tashkil etish;
- ilmiy-ta'lim muassasalarini yangi navlar, resurs tejamkor texnologiyalar, mahsulot xavfsizligi va eksport talablari bo'yicha amaliy loyihalarga jalb qilish;
- mahsulotning yetishtirilishidan tashqi xaridorga yetkazilishigacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi raqamli kuzatuvchanlik va axborot almashinuvi tizimini joriy etish;
- klaster faoliyatini ishlab chiqarish hajmi bilangina emas, mahsulot sifati, qayta ishlash darajasi, xizmatlardan foydalanish, shartnomalar bajarilishi, bozorlar diversifikatsiyasi va ishtirokchilar manfaatdorligi mezonlari asosida muntazam baholash.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksportga tayyorlash jarayonini tizimlashtirish, mayda ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozor zanjiriga qo'shilishini yengillashtirish, hududlarda qo'shilgan qiymatni ko'paytirish va eksport yetkazib berishlarining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Marshall A. Principles of Economics. London: Macmillan and Co., 1890.
2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
3. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. 1998. Vol. 76. No. 6. P. 77–90.
4. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. 1991. Vol. 99. No. 3. P. 483–499.
5. Sölvell Ö. Clusters: Balancing Evolutionary and Constructive Forces. Stockholm: Ivory Tower Publishers, 2009.
6. Ketels C.H.M. Cluster Policy: A Guide to the State of the Debate // Knowledge and the Economy. Dordrecht: Springer, 2013. P. 249–269.
7. Delgado M., Porter M.E., Stern S. Clusters, Convergence, and Economic Performance // Research Policy. 2014. Vol. 43. No. 10. P. 1785–1799.
8. FAO. Developing Sustainable Food Value Chains: Guiding Principles. Rome: Food and Agriculture Organization, 2014.



9. OECD. Agricultural Innovation Systems: A Framework for Analysing the Role of the Government. Paris: OECD Publishing, 2013.
10. UNIDO. Agro-Value Chain Analysis and Development: The UNIDO Approach. Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2009.
11. Begimova D.K. Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023.
12. Rayimjanova G.X. Agrosanoat klasterlari faoliyatining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>